



## Turk sotsiologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi

Nematova Dilfuzaxon To'lanboyevna

O'zjoku Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy

fanlar fakulteti ijtimoiy-gumanitar kafedrasи

katta o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Turkiyada sotsiologiyaning ilk paydo bo'lishi kutilmagan sharoitlarga va o'sha davrada yuz bergan ijtimoiy hodisalarga ishora qiladi. Bunda uch muhim belgilovchi xususiyat turk sotsiologiyasiga rang beradi. Asosan turk sotsiologiyasining ilmiy asoslarini "Kutad-g'u Bilig" va "Devon-i Lug'at at Turk"dan izlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga L.Koser ta'kidlaganidek "Veberni tushunishning eng yaxshi yo'li u yashagan iqlimga ijodiy munosabatdir" degan qarashi ta'sirida turk sotsiologiyasining intellektual zamini yaratildi. Mavlono, Yunus Emre, Xoja Ahmed Yassaviy, Hoji Bektoshi ,Kotip Chelebiy, Piri Sulton Abdal, Mahmut Kashgariy, Farobiy va Yusuf Xos Hojibning qarashlari va hayot tarzidan uzoq bo'gan fikrlarni yuritish mumkin emas.

**KALIT SO`ZLAR:** Turk sotsiologiyasi, sotsial omillar, Emil Dyurkgeym va sotsiologizm, Amerika pragmatizmi, modernizatsiya, g'arbchilik, monarxiya,tarix chizig'isi, vizualizatsiya, Nemis idealizmi, atributi, sekulyarizm, ossifikatsiya, antropologiya, postmodernizm.

### Возникновение и развитие турецкой социологии

**АННОТАЦИЯ:** Первое появление социологии в Турции связано с неожиданными условиями и зависимостью от местных особенностей. При этом три важные определяющие черты придают окраску турецкой социологии. В принципе, научные основы турецкой социологии уместно искать в «Кутад-гу Билиг» и «Девон-и Лугат ат Тюрк». В то же время, как отмечал Л. Козер, «лучший способ понять Вебера — это творческое отношение к климату, в котором он жил», был создан интеллектуальный фундамент турецкой социологии. Невозможно придерживаться мнений, далеких от взглядов и образа жизни Мауланы, Юнуса Эмре, Ходжи Ахмеда Яссави, Хаджи Бектоши, Котиб Челеби, Пири Султана Абдала, Махмута Кащгари, Фараби и Юсуфа Хоса Хаджиба.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** турецкая социология, социальные факторы, Эмиль Дюркгейм и социологизм, американский pragmatism, модернизация, вестернизм, монархия,



линия истории, визуализация, немецкий идеализм, атрибут, секуляризм, окостенение, антропология, постмодернизм.

## The emergence and development of Turkish sociology

**ABSTRACT:** The first appearance of sociology in Turkey is associated with unexpected conditions and dependence on local characteristics. However, three important defining features color Turkish sociology. In principle, it is appropriate to look for the scientific foundations of Turkish sociology in “Kutad-gu Bilig” and “Devon-i Lugat at Turk”. At the same time, as L. Coser noted, “the best way to understand Weber is a creative attitude towards the climate in which he lived,” the intellectual foundation of Turkish sociology was created. It is impossible to hold opinions that are far from the views and lifestyle of Maulana, Yunus Emre, Khoja Ahmed Yasawi, Haji Bektoshi, Kotip Celebi, Piri Sultan Abdal, Mahmut Kashgari, Farabi and Yusuf Khos Hajib.

**KEY WORDS:** Turkish sociology, social factors, Emile Durkheim and sociologism, American pragmatism, modernization, Westernism, monarchy, line of history, visualization, German idealism, attribute, secularism, ossification, anthropology, postmodernism.

## KIRISH

Biz dunyo sotsiologiyasini o’rganar ekanmiz qardosh turk xalqi sotsiologiyasini ham chetda qoldirmasligimiz kerak. Turk sotsiologiyasining vujudga kelishi necha asrlik ilmiy izlanishlar va ilmiy g’oyalarning ilgari surilishi bilan aloqador. Turkiyada sotsiologiyaning ilk paydo bo’lishi kutilmagan sharoitlariga va mahalliy xususiyatlarga bog’liqligiga ishora qiladi. Bunda uch muhim belgilovchi xususiyat turk sotsiologiyasiga rang beradi. Asosan turk sotsiologiyasining ilmiy asoslarini “Kutad-g’u Bilig” va “Devon-i Lug’at at Turk”dan izlash maqsadga muvofiq bo’ladi. Shu bilan birga L.Koser ta’kidlaganidek “Veberni tushunishning eng yaxshi yo’li u yashagan iqlimga ijodiy munosabatdir”, degan qarashi ta’sirida turk sotsiologiyasining intellektual zamini yaratildi. Mavlono, Yunus Emre, Xoja Ahmed Yassaviy, Hoji Bektoshi ,Kotip Chelebiy, Piri Sulton Abdal, Mahmut Kashgariy,Ibn Haldun, Farobiy va Yusuf Xos Hojibning qarashlari va hayot tarzidan uzoqda fikr yuritish mumkin emasdek.

G’arbga asoslangan ilmiy sotsiologiyaning asoslari sanoat inqilobidan keyin paydo bo’lgan ijtimoiy muammolar hisoblangan.Turk sotsiologiyasi tarixida muhim o’rin tutgan sotsiologlarning hayoti, faoliyat mavzulari va asarlarini xronologik tartibda tadqiq etuvchi tadqiqotlar bu sohada tadqiqot olib bormoqchi bo’lganlar uchun muhim manba sifatida qo’llaniladi. Turk sotsiologiyasi tarixiga oid ikkita muhim manbadan biri M. Chag’atay O’zdemir tomonidan tahrir qilingan “Turk sotsiologiyasidagi nomlari va asarlar” I-II tomlik bo’lib, Ikkinchisi esa Ertan Eg’ribel va Ufuk O’zjan tomonidan tahrir qilingan “Turk sotsiologlari va ularning asarlari” I-II tomlik kitobdir. Ushbu asarlardagi juda muhim yondashuvlar va turk sotsiologiyasi tarixini o’rganish borasidagi maqolalar, sotsiologiya va sotsiologlar yashagan muhitni tasvirlaydi. Darhaqiqat, sotsiologiya nafaqat tarixda vujudga



kelgan ijtimoiy hodisalarni o'rganadi, balki turli ijtimoiy hodisalar o'rtaсидаги муносабатлар haqida tarixdan zarur ma'lumotlarni ham beradi. Tarix chizig'isini o'rganish orqali turk sotsiologiyasining rivojlanish bosqichlarini yanada aniqroq tushunish va anglash mumkin bo'ladi. Biroq, tarixni o'rganishga intilishda asosiy munosabatlar sabab va oqibatlarga urg'u berish emas, balki sotsial omillarni aniqlash, muhim qismini ochib berishdir. Turkiyadagi yuz bergen siyosiy o'zgarishlar, xalqaro aloqalar, o'zgarish tendentsiyalari, muhim sotsiologlar, davriy nashrlar va ba'zi davrlarni ifodalovchi kitoblar hech qachon e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Turk sotsiologiyasining vujudga kelishidan to hozirgi kungacha butun dunyo va Turkiyaga ta'sir ko'rsatgan asosiy voqealar faol omillar sifatida ko'rib chiqilgandan so'ngra, tarix chizig'isini yaratilishiga harakat qilindi. Turk sotsiologiyasi tarixini o'rganishni boshlang'ich nuqtasi XIX-XX asrlarga to'gri keladi. Bu asrlarda sotsiologiyaning paydo bo'lishini gnoseologik nuqtai nazaridan izlash o'rini bo'ladi. Sotsioliya falsafadan eng so'nggi ajraladigan fan bo'lgani uchun uni G'arbning intellektual rivojlanish jarayonidan ajratib bo'lmaydi. Turk sotsiologiyasi tarixini o'rganishdagi yondashuvlar sotsiologiya va tarix fanlari o'rtaсидаги муносабатни emas, balki tarix sotsiologiyasining bir qismidir. Ayniqsa, so'nggi yillarda Turkiyadagi ko'plab universitetlarning tarix fakultetida tarix sotsiologiyasi kurslari o'quv dasturiga qo'shila boshlandi va shu tariqa tarix va sotsiologiya fanini umumiylasosda birlashtirdi. Shu ma'noda, 1914-yilda Ziya Go'kalp tomonidan poydevor qo'yilgan sotsiologiya faniga baho berar ekanmiz yashayotgan dunyomizni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. O. O'zcan va R.G'oziyev ta'kidlaganidek, 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushining boshlanishi, butun dunyoda hokimiyat uchun kurash olib borilgan va natijada jahon urushlari boshlangan edi. Bu sanoatlashgan Yevropa davlatlaridagi o'zgarishlarning yagona tomoni emasligini ko'rsatadi. Bu holat ham G'arb davlatlarini Sharq jamiyatlarini ustidan hukmronlik o'rnatilmoqchi bo'lganligida ko'rindi.

Pavlovnning 1903-yildagi mashhur tajribasi G'arbning ilm-fan sohasidagi muqarrar yuksalishini anglatadi. 1904-yilda FIFAning tashkil etilishini yuksalib borayotgan pozitivistik tafakkurning Sharq jamiyatlarida ham hukmronlik qilishi, ularni o'zlarini xohlagan shaklnida o'zgartirish mumkinligini ko'rinish qiyin emas. FIFA bilan G'arb dunyosi barcha jahon futbol federatsiyalarini bir to'm ostida to'plashni va ularni o'zlarini belgilagan qoidalar orqali yuritishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, 1905-yilda Maks Veberning "Kapitalizm ruhi va protestant axloqi" asarining nashr etilishi G'arbning o'z jamiyatlarida hukmronlik qilish istagini ko'rsatadi. Aslini olganda, yuqori martabali boshqaruvchilar va sanoatchilar Germaniyadagi kabi protestant sektasiga mansub bo'lishlari tasodif emas va G'arbdagi eng boy odamlarning aksariyati XVI asrda protestantizmni qabul qilgan odamlar edi. Veber o'z asarida protestant axloqi kapitalizmning rivojlanishiga asos bo'lishini isbotlashga harakat qildi.

1908-yilda esa Eronda Konstitutsiyaviy Monarxiyaning e'lon qilinishi turk sotsiologiyasining tarixiy chizig'isni yaratishda muhim omil bo'lib, fan-texnika rivojlanishining boshlanishi sifatida ta'sirini aniqlash nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir. Shu nuqtai nazardan, sotsioliya tarixi va yetakchi sotsiologlarning tadqiqotlari ular



yaratgan muhim asarlarni qamrab olgan bo'lsa, o'tmish varoqlarida tarixiy sotsiologiya doirasidagi jarayonlarga urg'u beradigan muhim voqealarni qamrab oladi. Bu voqealar, turk sotsiologiyasi tarixini o'rganishni maqsad qilgan turk sotsiologlaridan tarixidagi voqealarni aniqlashtirishda ilmiy tasavvur qilishni va yondoshishni taqazo etadi. Shu nuqtai nazaridan qaraganda turk sotsiologiyasi tarixini o'ranishda sotsiologlar yashagan ijtimoiy atmosferani hisobga olgan holda quyidagicha turkumlash mumkin.

- XIX. asr va XX. asrning rivojlanishi
- Emil Dyurkgeym va sotsiologizm
- Ziya Go'kalp, Yusuf Akchura va Gaspirali Ismoil Bey
- Turkchilik, G'arbchilik, Islomchilik, Usmoniylik
- Nemis idealizmi, Amerika pragmatizmi, Fransiya davlat falsafasi
- Sharq va G'arb ziddiyatlari
- G'arblashtirish, zamonaviylashtirish, modernizatsiya
- Sanoat inqilobi tomonidan ohib berilgan ijtimoiy tuzilma
- Paradigma urushlari
- Globallashuv va postmodernizm
- 11 sentyabr voqealari va SSSRning parchalanishi

G'arb sanoat inqilobida boylik to'plash va uni kapitalga aylantirib doimiy qilib qo'ydi va Fransiya inqilobi bilan sanoat jamiyatni zarur deb bilgan kapitalistik institutlarning o'zgarishini ta'minladi. Shu bilan birga O'zkan ta'kidlaganidek, G'arb o'zini dunyoga hukmronligini sanoat jamiyatini yaratish bilan ishlab chiqdi. Sharq jamiyatlari turg'unlik bilan G'arb esa dinamizm va sanoat faolligi bilan bog'liq yondashuvlarni yaratdi.

Aslini olganda turk sotsiologiyasining boshlanish nuqtasi imperianing parchalanishi boshlangan yillar XIX asr ohiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda vujudga kelgan tartibsizliklar va urushlar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, XX asrda ikkita jahon urushi bo'lgan. Usmonlilar imperiyasining parchalanishi va Turkiya Respublikasining tashkil topishi ham aynan shu davrda sodir bo'ldi. Turk sotsiologiyasi nuqtai nazaridan bu asrda Ziyo Go'kalp rahbarligida turk sotsiologiyasiga asos solingen. XIX asr G'arbning qayta tuzilishi va ilm-fanni anglashda pozitivistik paradigmalar hukmron bo'la boshlagan davrni tashkil etadi. Aslini olganda, Go'kalp XX-asrda Dyurkgeym va Kontnning pozitivizmini qabul qildi. U buni XX asr boshlarida Turkiyadagi yuz berayotgan voqealarni hodaisalarga mos tadqiqotlari bilan 1940-yillargacha Kont va Dyurkgeym sotsiologiya maktabini davom ettirishiga sabab bo'ldi. Dyurkgeym Fransiya va dunyo sotsiologiyasining ajralmas qismidir. Coenen-Huther ta'kidlaganidek, Emil Dyurkgeym fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi sifatida tarixga kirdi. Sanoat inqilobidan keyin jiddiy muammolarga duch kelgan fransuz jamiyatini qurish va qutqarish uchun sotsiologiyani asosiy vosita



sifatida ko'rgan Dyurkgeym Ziyo Go'kalpga ham ta'sirini o'tkazdi. Dyurgeymning sotsiologik g'oyalari jamiyatni barpo etish va qutqarishga oid qarashlari Go'kalpga ijobiy ta'sir qildi. Bu ilmiy-sotsiologik qarashlar Ziyo Go'kalpni Usmonlilar imperiyasidan keyin yangi tashkil etilgan Turkiya Respublikasining mafkurachisi sifatida shakllanishiga olib keldi. Dyurkgeym sanoat inqilobidan keyin paydo bo'lgan buzilgan fransuz jamiyati uchun ilmiy yechimlarni sanab o'tdi. Shu bilan birga u o'z sotsiologik g'oylarini himoya qildi va sotsioliya barcha fanlarning onasi degan fikrni ilgari surdi. Shu ma'noda Dyurkgeym uchun ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilmaydigan sotsiologik tadqiqotlar hech qanday ma'noga ega emas edi. Ziyo Go'kalp amaliy tadqiqotlarga u qadar e'tibor bermagan, u Turkiya Respublikasining poydevorini qo'yish uchun avvalo nazariy bilimlar zarurligini ta'kidlagan. Undan songra bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning muhimligini ta'kidlagan. Shunday qilib turk sotsiologiyasi tarixining dastlabki poydevorini qo'yishda fransuz davlat falsafasining ta'siri juda chuqur bo'ldi. Ziyo Go'kalp Dyurkgeym ta'sirida bo'lgan va bu poydevorni turkiylik ustiga qurgan. Boshqacha qilib aytganda, turk olimi Kachmazog'lu ta'kidlaganidek, Go'kalp Dyurkgeym matabining qarashlarini "milliy" xususiyatlarga ko'ra qayta shakllantirgan G'arb sotsiologiyasidan o'zini universal deb da'vo qiladigan "milliy sotsioliya" tushunchasini yaratgan. Go'kalp sotsiologiyasi 1940-yillargacha Turkiyadagi sotsiologik tadqiqotlarga ta'sir ko'rsatdi va Go'kalp sotsiologiyasining asosiy tamoyillari o'quv dasturlarida va adabiyotlarda doimo qollanilib kelindi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Akchali, P. (2003). Turk kimligining ikki yetakchisinig nomi: Ismoil Bey Gaspirali va Ziya Gökalp. H. Dündar Akarja (tayyorlangan), Ismoil Bey va Ziya Gökalp simpoziumlari: No. 19. (2-18-betlar). Turksoy nashrlari, Anqara.
2. Bendiks, R. (1983). Sanoatlashtirish, modernizatsiya va rivojlanish, Ehson Sezal (nashr qilish uchun ed.) Sotsioliya yozuvlarida. Bursa: Ulug'dag' universiteti
1. Eg'ribel, E. (2002). Baykan Sezerning fikri haqida. Ertan Eg'ribel va Ufuk Ozjan, Sotsioliya yilnomasi Kitob 9. XX. Asr Turk sotsiologiyasi uch yil ichida (s. 29-40). Istanbul: Onchu nashri.
2. Eg'ribel, TO., Ozcan, U. (2009). G'arbiy sotsioliya oxiri va turk sotsiologiyasi Ufqlar. Ertan Eg'ribel va Ufuk Ozjan (tahrirlar), Turkiyada ijtimoiy fanlarning rivojlanishi II (p. 398-408). Istanbul: Bayroq bosmaxonasi.
3. Eyzenshtadt, S. (1966). Modernizatsiya: norozilik va o'zgarish. Nyu-Jersi: Prentice-Hall Inc., Englewood Qoyalar.
4. Ergan, N. G. (2018). Turkiyada sotsioliya. Esra Burcu Sag'lam & Aslihan Oğ'un Boyacıoğlu va Aycha Gelgech Bakacak (Tahrirlar), Sotsioliya (619-689-betlar). Anqara: Siyasal kitob uvi.
5. Kabakchi, TO. (2008). Pozitivizm Turkiyaga kirishi va sotsiologiyaga



ta'siri, Turkshunoslik adabiyoti jurnali, 6(11), 41-60.

6. Kachmazog'lu, H. B. (1999). Turk Sotsiologiyasi ustida yil t adqiqotlari, Istanbul: Birey nashriyoti.
7. Kachmazog'lu, H. B. (2015). Turkiyada sotsiologyaning yuz yillik to'plami, Sotsiologiya konferentsiyalari, 52 (2), 29-55.
8. Rokki, K. (1994) Sizning dunyongizda turkcha fikrlar , Istanbul: Yulduz va yarim oy Nashrlari

